

JINOIY JAZOLARNI IJRO ETISHDA ELEKTRON MONITORING TIZIMI: O‘ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA TAJRIBASINI TAQQOSLASH

Bekmurodov Umidjon Otabekovich

TerDU Yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi

Irnazarov Shuxrat Najmetdinovich

*Termiz davlat universiteti “Jinoyat huquqi
va fuqarolik protsessi” kafedrasi o‘qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Elektron bilakuzuk tizimi — ozodlikni cheklash tarzidagi jazoni masofadan turib nazorat qilish vositasi sifatida, shuningdek, nazorat ostidagi shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish va qayta jinoyatchilik darajasini kamaytirish mexanizmi sifatida katta ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston va Buyuk Britaniya tajribalari asosida elektron monitoring tizimi, uning samaradorligini oshirish yo‘llari, texnik va huquqiy standartlar hamda ochiq raqamli axborot platformalari orqali ma’lumotlarni boshqarish masalalari tahlil qilinadi. Xorijiy va mahalliy qonunchilik, shuningdek, so‘nggi besh yil ichidagi Buyuk Britaniya elektron braslet tizimi statistikasi asosida tizimning samaradorligi va ijtimoiy ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari elektron monitoringni rivojlantirish, standartlashtirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

АННОТАЦИЯ

Система электронного браслета имеет важное значение как инструмент дистанционного контроля за исполнением наказания в виде ограничения свободы, а также как механизм социальной реабилитации лиц, находящихся под надзором, и снижения уровня рецидива. В данном исследовании анализируются системы электронного мониторинга в Узбекистане и Великобритании, пути повышения их эффективности, технические и правовые стандарты, а также вопросы управления данными через открытые цифровые платформы. На основе иностранного и национального законодательства, а также статистики Великобритании за последние пять лет рассматриваются эффективность и социальная значимость системы. Результаты исследования способствуют формированию научно-практических рекомендаций по развитию электронного мониторинга, стандартизации процессов и усилению общественного контроля.

ABSTRACT

The electronic bracelet system plays a significant role as a tool for remotely monitoring the execution of freedom-restricting sentences, as well as a mechanism for reintegrating individuals under supervision into society and reducing recidivism rates. This study analyzes electronic monitoring systems in Uzbekistan and the United

Kingdom, ways to enhance their effectiveness, technical and legal standards, and data management through open digital platforms. Based on both foreign and domestic legislation, as well as UK electronic bracelet statistics over the past five years, the system's efficiency and social significance are examined. The study's findings contribute to the development of scientific and practical recommendations for improving electronic monitoring, standardizing procedures, and strengthening public oversight.

Kalit soʻzlar: *elektron braslet, elektron monitoring, nazorat ostidagi shaxslar, qayta jinoyatchilik, raqamli kuzatuv, huquqiy standartlar.*

Ключевые слова: *электронный браслет, электронный мониторинг, лица под надзором, рецидивизм, цифровой контроль, правовые стандарты.*

Keywords: *electronic bracelet, electronic monitoring, supervised individuals, recidivism, digital surveillance, legal standards.*

Kirish

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda jinoyat-ijroiya tizimini modernizatsiya qilish, jinoiy javobgarlikning muqobil shakllarini kengaytirish va shaxsni jamiyatga qayta moslashtirishga qaratilgan islohotlar keng koʻlamda olib borilmoqda. Ushbu jarayonning muhim yoʻnalishlaridan biri — mahkumlarni izolyatsiya qilmasdan nazorat qilish imkonini beruvchi elektron monitoring tizimini joriy etishdir. Shu munosabat bilan hukumat tomonidan elektron bilakuzuk qoʻllanilishini bosqichma-bosqich joriy etishni nazarda tutuvchi qaror loyihasi ishlab chiqildi¹.

Mazkur tizimni joriy etishda rivojlangan davlatlar tajribasi, ayniqsa Buyuk Britaniyaning elektron monitoring boʻyicha amaliyoti, alohida ahamiyatga ega. **Buyuk Britaniyada elektron bilakuzuk(electronic tagging)** 1990-yillardan boshlab jinoiy jazolarning muqobil shakli sifatida qoʻllanilib, ayniqsa uy qamogʻi va shartli ozod qilish turlarida keng tatbiq etilgan. Britaniya tajribasi shuni koʻrsatadiki, elektron monitoring nafaqat jazo ijrosini insonparvarlashtirishga, balki jazoni ijro etish muassasalaridagi yuklamani kamaytirishga, takroriy jinoyatchilikni pasaytirishga ham sezilarli darajada xizmat qiladi. Eng muhimi, bu tizim probatsiya xizmatining nazorat imkoniyatlarini kuchaytirib, nazorat jarayonini texnologik va shaffof shaklda yuritishga imkon beradi.

Oʻzbekistonda mazkur amaliyotni joriy etish boʻyicha sinovlar ijobiy natija bergan boʻlib, elektron bilakuzuk bosqichma-bosqich barcha hududlarda tatbiq etilishi rejalashtirilgan. Elektron monitoring xarajatlari uy qamogʻidagi shaxslar boʻyicha Huquqbuzarliklar profilaktikasi jamgʻarmasi, ozodlikni cheklash jazosi boʻyicha esa Probatsiya xizmatini rivojlantirish jamgʻarmasi hisobidan qoplanishi belgilangan.

Buyuk Britaniya amaliyotida oʻz tasdigʻini topgan bu tizim Oʻzbekistonda ham

¹ <https://qalampir.uz/uz>

jazo ijrosining samaradorligini oshirish, nazorat sifatini kuchaytirish va shaxsni jamiyatdan ajratmasdan tarbiyaviy ta'sir choralari amalga oshirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Asosiy qism

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi 938-son **“Probatsiya to'g'risida”gi qonunining** tegishli moddasida elektron kuzatuv vositasi tushunchasiga tarif berilgan bo'lib, unga ko'ra, **elektron bilakuzuk** - shaxsning harakatlanish doirasi, joylashuvi va belgilangan cheklovlarga rioya etishini masofadan turib monitoring qilishga mo'ljallangan, qo'lga yoki oyoqqa taqiladigan maxsus elektron nazorat qurilmasi hisoblanadi.

Bundan tashqari shu qonunga ko'ra elektron kuzatuv vositasini qo'llash tartibi ham keltirib o'tilgan bo'lib, probatsiya nazoratidagi shaxsga nisbatan elektron kuzatuv vositasini qo'llash tuman (shahar) probatsiya bo'linmasi boshlig'i qarori bilan amalga oshiriladi. Bunday chorani qo'llash, odatda, ozodlikni cheklash tarzidagi jazoni o'tash tartibi talablarini buzganligi to'g'risida rasmiy ogohlantirilgan yoki jamoat tartibini buzish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

- Elektron kuzatuv vositasidan foydalanish ayrim toifalardagi shaxslarga nisbatan taqiqlanadi. Jumladan, u o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar, homilador ayollar, uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollar, birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxslar hamda tibbiy jihatdan bunday qurilmani taqish mumkin bo'lmagan boshqa shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Elektron kuzatuv vositasi probatsiya nazoratidagi shaxs probatsiya hisobidan chiqarilganda yechib olinadi. Agar nazorat ostidagi shaxs jazoni o'tash tartibiga qat'iy rioya qilsa va jamoat tartibini buzishga yo'l qo'ymasa, elektron kuzatuv vositasini qo'llash uch oylik muddatdan so'ng bekor qilinadi.

Elektron kuzatuv vositasini qo'llashning aniq tartibi *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi* tomonidan belgilab qo'yiladi².

Rivojlangan davlatlardan Buyuk Britaniyada elektron monitoring tizimini solishtiradigan bo'lsak, ya'ni bilakuzuklar orqali shaxslarni masofadan turib nazorat qilish mexanizmi ***Criminal Justice Act 1991***³ va ***Criminal Justice Act 2003***⁴ qonunlari bilan tartibga solinadi. Ushbu tizim sud hukmi yoki shartli ozodlik sharti ostida qo'llaniladi va nazorat mexanizmi **HM Prison and Probation Service (HMPPS)** tomonidan amalga oshiriladi. Shunday qilib, O'zbekistondagi tuman (shahar) probatsiya bo'limi boshlig'i qarori bilan tatbiq etiladigan tartib Buyuk Britaniyada sud va probatsiya xizmati tomonidan belgilanadi.

- Buyuk Britaniya amaliyotida elektron monitoringga ayrim toifalardagi shaxslar

² <http://lex.uz/uz/docs/-7050441> O'zbekiston Respublikasining “Probatsiya to'g'risida”gi Qonuni

³ Legislation.gov.uk. Criminal Justice Act 1991


⁴ Legislation.gov.uk. Criminal Justice Act 2003

kiritilmaydi. Jumladan, 18 yoshdan kichiklar, homilador ayollar, tibbiy holatiga ko'ra qurilmani taqish tavsiya etilmagan shaxslar monitoringdan ozod qilinadi. Bu jihatlar O'zbekiston qonunchiligida belgilangan cheklovlar bilan funksional jihatdan uyg'unlik kasb etadi.

Shuningdek, Buyuk Britaniyada nazorat ostidagi shaxs belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilgan taqdirda, sud yoki probatsiya xizmati tomonidan belgilangan muddatdan so'ng elektron kuzatuv vositasi yechib olinadi. Bu mexanizm O'zbekiston qoidalaridagi uch oylik muddat bilan qisman mos keladi, biroq muddat sud qarori va monitoring shartlariga bog'liq holda farqlanishi mumkin.

Buyuk Britaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, elektron monitoring tizimi nafaqat jazo ijrosini insonparvarlashtirishga, balki jazoni ijro etish muassasalaridagi yuklamani kamaytirishga, nazorat sifatini oshirishga va takroriy jinoyatchilikni pasaytirishga samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, bu tizim probatsiya xizmatiga shaxslar harakatini shaffof va texnologik jihatdan nazorat qilish imkoniyatini yaratadi.

Bundan tashqari Buyuk Britaniyada elektron bilakuzuk(elektron monitoring) tizimi ostidagi shaxslar soni haqida ma'lumotlar ochiq va rasmiy saytlarga muntazam joylashtirilib boriladi:



2021-yil 31 mart holatiga ko'ra, elektron monitoring ostida bo'lgan shaxslar soni 13 963 nafarni tashkil etgan. 2022-yil 31 dekabrda kelib ushbu ko'rsatkich 15 760 nafarga yetgan bo'lib, bir yil davomida sezilarli o'sish kuzatilgan. 2023-yil 31 martda esa elektron kuzatuv ostidagi shaxslar soni 17 350 nafarga ko'tarilgan. 2024-yil 30 iyun holatiga kelib monitoring ostidagi shaxslar soni 20 893 nafarga yetgani qayd etilgan. 2025-yil 30 sentabrga doir ma'lumotlarga ko'ra esa elektron kuzatuvdan

foydalanish yanada kengayib, uning doirasidagi shaxslar soni 26 647 nafargacha oshgan.

Ushbu raqamlar elektron monitoring tizimi bosqichma-bosqich mustahkamlanib, jinoyatchilikning oldini olish, jazoni ijro etishning muqobil mexanizmlarini qo'llash hamda nazorat samaradorligini oshirishda tobora muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi.

Shu o'rinda elektron monitoring tizimini takomillashtirish bo'yicha asosiy yo'nalishlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

• Hozirgi kunda O'zbekistonda elektron bilakuzuk(elektron monitoring) tizimi joriy etilgan bo'lsa-da, uning samarali ishlashini cheklovchi bir qator omillar mavjud. **Birinchidan**, tizim bo'yicha ochiq va muntazam statistik ma'lumotlarning mavjud emasligi asosiy kamchilik hisoblanadi. Probatsiya nazorati ostidagi shaxslar va elektron monitoring ostidagi shaxslar soni, hududiy taqsimoti, qurilma turlari va nazorat muddati bo'yicha raqamli ma'lumotlar rasmiy platformada e'lon qilinmaydi. Bu holat nafaqat tizimning samaradorligini baholashni murakkablashtiradi, balki ilmiy tadqiqotlar, tahliliy ishlanmalar va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkoniyatlarini ham cheklaydi.

Taklif: Ochiq elektron axborot tizimini yaratish: Probatsiya nazorati ostidagi shaxslar va elektron monitoring ostidagi shaxslar bo'yicha yillik statistik ma'lumotlarni e'lon qiluvchi yagona elektron platforma tashkil etilishi lozim. Ushbu tizim hududlar bo'yicha taqsimot, qurilma turlari, nazorat muddati, shuningdek, qayta jinoyatchilik ko'rsatkichlarini o'z ichiga olishi va jamoatchilik, tadqiqotchilar hamda rasmiy organlar uchun qulay bo'lishi zarur.

• **Ikkinchidan**, tizim faqat cheklangan hududlarda sinov tariqasida joriy etilgan va uning butun mamlakat bo'ylab barqaror ta'minlanmagan. Shu sababli, elektron monitoringdan foydalanish standartlari va tartiblari hududlar o'rtasida farq qiladi, bu esa nazorat ostidagi shaxslar uchun bir xilda shaffof va adolatli mexanizmni ta'minlashga to'sqinlik qiladi.

Taklif: Tizimni bosqichma-bosqich kengaytirish va standartlashtirish: Elektron bilakuzuk tizimi barcha hududlarda joriy etilib, nazorat ostidagi shaxslar uchun yagona, barqaror va shaffof tartiblar ishlab chiqilishi kerak. Bu jarayon texnologik va huquqiy mexanizmlarning mukammal ishlashini ta'minlashi lozim.

• **Uchinchidan**, tizimning huquqiy va texnologik jihatlari bo'yicha nomuvofiqliklar mavjudligi aniqlangan. Elektron bilakuzukni qo'llash tartibi, javobgarlik mexanizmi va maxsus kategoriyalarga oid cheklovlar bo'yicha amaliy yo'riqnomalar ba'zan noaniq, bu esa tizimning samarali ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Taklif: Xorijiy tajribani integratsiya qilish: Buyuk Britaniya, Koreya va Turkiya kabi rivojlangan davlatlarda elektron monitoring tizimlarining amaliy tajribasi o'rganilib,

O'zbekistonda ushbu tajriba asosida xavfsiz va samarali elektron bilakuzuk tizimini joriy etish bo'yicha mukammal metodologiya ishlab chiqilishi zarur. Bu, o'z navbatida, probatsiya tizimining samaradorligini oshiradi va qayta jinoyatchilik darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Elektron bilakuzuk tizimi O'zbekiston hududida tatbiq etilishi natijasida nazorat ostidagi shaxslarni masofadan turib kuzatish imkoniyati yaratilgan bo'lib, bu jarayon shaxslarni ijtimoiy hayotga qayta moslashtirish va qayta jinoyatchilikni kamaytirishda muhim vosita sifatida baholanadi. Shu bilan birga, tizimning samarali ishlashini cheklovchi bir qator kamchiliklar mavjud: birinchidan, ochiq va muntazam yangilanadigan rasmiy statistik ma'lumotlar bazasining yo'qligi, hududiy tatbiqning cheklanganligi va huquqiy hamda texnologik jihatlarida nomuvofiqliklar mavjud; ikkinchidan, tizim faqat cheklangan hududlarda sinov tariqasida joriy etilganligi sababli uning barqaror tatbiqi ta'minlanmagan; uchinchidan, elektron bilakuzukdan foydalanish va unga qo'yiladigan texnik, huquqiy va ijtimoiy talablar bo'yicha standartlashtirilgan yo'riqnomalar hali to'liq ishlab chiqilmagan.

Tizimni takomillashtirish bo'yicha asosiy taklif sifatida qonunchilikda elektron monitoringni rivojlantirish va tartibga solish, hududlar bo'yicha tatbiqni kengaytirish, shuningdek, ochiq va raqamlashtirilgan statistik ma'lumotlar bazasini yaratish zarur. Bu, nafaqat tizimning shaffofligini oshiradi, balki nazorat ostidagi shaxslarning ijtimoiy va huquqiy himoyasini mustahkamlash, hududlar bo'yicha bir xillikni ta'minlash va qayta jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, tizim bo'yicha texnik va huquqiy standartlarni yagona normativlar orqali belgilash, shuningdek, maxsus kategoriyalarga oid cheklovlar va javobgarlik mexanizmlarini aniq tartibga solish dolzarb vazifa sifatida qaraladi.

Buyuk Britaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, elektron monitoring tizimining samarali ishlashi ochiq statistik ma'lumotlar, muntazam yangilanish, reabilitatsiya dasturlarining keng qamrovi va shaffof nazorat mexanizmlari bilan ta'minlanganida qayta jinoyatchilik darajasi sezilarli darajada kamayadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston amaliyotini yanada takomillashtirish, tizimni mamlakat bo'ylab kengaytirish va elektron bilakuzuk tizimining huquqiy, texnologik va statistik asoslarini mustahkamlash dolzarb vazifa sifatida qaraladi.

Adabiyotlar / References

- [1] O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. 1997-yil 25-aprel. Rasmiy nashr. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi axborotlari.(Oxirgi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan);
- [2] Jinoyat-ijroiya huquqi: Darslik. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. – 206 b;

- [3] <http://lex.uz//uz/docs/-7050441> O‘zbekiston Respublikasining “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni;
- [4] <https://qalampir.uz/uz>;
- [5] Legislation.gov.uk. Criminal Justice Act 1991;
- [6] Legislation.gov.uk. Criminal Justice Act 2003.